

## INGLIZ TILIDA KAFOLAT NUTQIY AKTINING DISKURSIV VOQELANISHI

**Po‘latova O‘g‘ilxon Abduxaliqovna**  
Andijon davlat universiteti doktoranti  
Email: ogiloypulatova@gmail.com  
<https://orcid.org/0009-0007-2757-0248>  
**UO‘K 811**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18985643>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz tilida kafolat nutqiy aktining diskursiv voqelanishi tahlil qilinadi. Kafolat nutqiy akti so‘zlovchining o‘z bayonotiga nisbatan yuqori darajadagi javobgarlikni zimmasiga olishini hamda tinglovchida ishonch uyg‘otishni maqsad qilishini ifodalaydi. Ushbu nutqiy akt turli diskurs turlarida o‘ziga xos shakl va vositalar orqali namoyon bo‘ladi hamda har bir kontekstda alohida pragmatik vazifani bajaradi. Janr va kommunikativ vaziyatga qarab uning lingvistik ifodalanishi farqlansa-da, ichki illokutiv mazmunida ishonch bildirish va majburiyat olish semantikasi saqlanib qoladi. Maqolada ingliz tilidagi kafolat nutqiy akti badiiy matn, dialog, siyosiy hamda reklama va marketing diskurslari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari tilshunoslikda komissiv nutqiy aktlarning pragmatik xususiyatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlari:** kafolat nutqiy akti, assertiv, komissiv, diskurs, badiiy matn, dialog, siyosiy diskurs, reklama va marketing diskursi.

**Abstract.** This article examines the discursive realization of the speech act of guarantee in English. The speech act of guarantee expresses the speaker’s assumption of a high degree of responsibility for the truth or fulfillment of their statement and aims to create confidence in the listener. This type of speech act manifests itself through specific linguistic means across different types of discourse and performs distinct pragmatic functions depending on the communicative context. Although its linguistic expression varies according to genre and situation, its internal illocutionary core consistently reflects the semantics of assurance and commitment. The article analyzes the speech act of guarantee in English using examples from literary texts, dialogues, political discourse, as well as advertising and marketing discourse. The findings contribute to a deeper understanding of the pragmatic features of commissive speech acts in linguistics.

**Keywords:** speech act of guarantee, assertive, commissive, discourse, literary text, dialogue, political discourse, advertising and marketing discourse.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается дискурсивная реализация речевого акта гарантии в английском языке. Речевой акт гарантии выражает принятие говорящим высокой степени ответственности за достоверность или выполнение своего высказывания и направлен на формирование доверия у адресата. Данный тип речевого акта проявляется посредством специфических языковых средств в различных видах дискурса и выполняет определённые прагматические функции в зависимости от коммуникативного контекста. Несмотря на вариативность языкового оформления в разных жанрах и ситуациях общения, его внутренняя иллокутивная основа сохраняет семантику уверения и обязательства. В статье анализируется речевой акт гарантии в английском языке на примерах художественного текста, диалога, политического, а также рекламного и маркетингового дискурса. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию прагматических особенностей комиссивных речевых актов в лингвистике.

**Ключевые слова:** речевой акт гарантии, асертив, комиссив, дискурс, художественный текст, диалог, политический дискурс, рекламный и маркетинговый дискурс.

### **Kirish.**

Kafolat tushunchasi ham komissiv nutqiy aktlar doirasida izohlanadi, chunki unda adresantning (guarantor) muayyan shart, voqea yoki natijaning amalga oshishiga kafillik berish majburiyati ifodalanadi. Boshqacha aytganda, kafolat akti so‘zlovchining o‘z bayonotiga nisbatan yuqori darajadagi javobgarlikni o‘z zimmasiga olishini bildiradi. Kafolat beruvchi shaxs adresatga muayyan holatning ro‘y berishi yoki ma‘lum bir da‘vo haqiqat ekaniga qat‘iy ishonchini bildiradi. Shu bilan birga, agar ushbu holat amalga oshmasa yoki da‘vo noto‘g‘ri chiqsa, so‘zlovchi buning uchun shaxsiy mas‘uliyatni

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

o‘z zimmasiga olishga tayyor ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli, kafolat akti ikki tarkibli illokutiv majmua sifatida qaraladi [1]:

Tasdiqlovchi komponent (assertiv): gapiruvchi X holatga to‘liq ishonishini bildiradi va unga tayanish mumkinligini aytadi (masalan: *“Bu mahsulot sifatli - kafolat beraman”* deganda, gapiruvchi mahsulot sifatiga to‘liq ishonyapti).

Majburiyat komponenti (komissiv): gapiruvchi X bajarilmasa yoki va‘da qilingan natijaga erishilmasa, tegishli chora ko‘rishni o‘z bo‘yniga oladi, ya‘ni ma‘lum javobgarlikni zimmasiga oladi (masalan: *“Agar mahsulot aybi chiqsa, pullaringizni qaytarib berishga kafolat beramiz”* - bu yerda bajarilmagan va‘da uchun kompensatsiya berish majburiyati ifodalanmoqda).

G.Paterson kafolat aktining aynan shu gibrid tabiatini ta‘kidlab, *“kafolat - bu bir vaqtning o‘zida assertiv (tasdiq) va komissiv qirralarga ega nutqiy akt, chunki oddiy bayonot yetarli bo‘lmagan vaziyatda boshqaga ishontrish uchun unda qo‘shimcha majburiyat yuklanadi”* deydi [1]. Demak, kafolat aktining kommunikativ vazifasi - tinglovchida ishontrish, ishonch hosil qilish va xavfsizlik hissini uyg‘otishdan iborat bo‘lib, bu jihatdan u oddiy va‘dadan kuchliroq illokutiv ta‘sirga ega.

### **Usullar va adabiyotlar tahlili.**

Kafolat nutqiy aktining mohiyatini chuqurroq anglash uchun uni unga eng yaqin komissiv tur - va‘da berish akti bilan pragmatik jihatdan qiyoslash maqsadga muvofiqdir. Har ikkala akt ham adresantning kelajakdagi harakat yoki natija uchun zimmasiga majburiyat olishini bildiradi, biroq ularning illokutiv kuchi, pragmatik maqsadi hamda kontekstual qo‘llanish sohalari o‘rtasida sezilarli semantik-pragmatik tafovutlar mavjud.

Va‘da akti ko‘proq shaxsiy niyat va ijro majburiyatiga, ya‘ni *“men buni qilaman”* degan xohish bildiruvchi illokutsiyaga asoslanadi. Kafolat akti esa buningdan farqli ravishda, natijaning ishonchligi va javobgarlik elementini o‘z ichiga olgan institutsional yoki ishonchga asoslangan illokutsiyani ifodalaydi. Shu bois, kafolat akti so‘zlovchining o‘z harakati emas, balki natijaning amalga oshishiga bo‘lgan kafillik va javobgarlikni o‘z zimmasiga olish xususiyati bilan ajralib turadi.

Adresant, kafolat bildirar ekan, o‘zining so‘zlariga nisbatan yuqori darajadagi ishonchni namoyon etadi hamda tinglovchining potensial ikkilanishini kamaytirishga intiladi. Buning natijasi o‘laroq, adresat gapiruvchining kafolatini ishonchli axborot yoki dalil sifatida qabul qiladi, ko‘pincha uning tavsiyasini bajonidil qabul qilish yoki aytgan fikrini haqiqat deb e‘tirof etish holati kuzatiladi. Shu tarzda, kafolat nutqiy akti o‘zining komissiv mohiyatidan tashqari, persuaziv va psixopragmatik vazifani ham bajaradi, ya‘ni u ishonchni mustahkamlash, shubhani bartaraf etish va kommunikativ ta‘sir kuchini oshirish vositasi sifatida faoliyat yuritadi. Ilmiy adabiyotlarda ta‘kidlanishicha, *“kafolat berishning asosiy motivlaridan biri - boshqalarga yetarlicha ishonchni ta‘minlash, shunda ular biror chora ko‘rishga jur‘at etadilar”*. Demak, kafolat aktining perlokutiv ta‘siri nuqtayi nazaridan ishontrish vazifasini bajaradi: tinglovchi kafolatga ishonib, o‘z rejasini davom ettiradi yoki gapiruvchining so‘zlariga tayanadi. Bunday hollarda kafolat akti tinglovchining xatti-harakatlar yo‘nalishini belgilovchi bir signalga aylanadi - masalan, xaridor sotuvchining *“Mahsulotga bir yil kafolat beramiz”* degan so‘zidan so‘ng tovarni xarid qilishga ko‘nikadi; yoki do‘stingiz *“Boravering, hammasi yaxshi bo‘ladi, men kafolat beraman”* desa, Siz uning so‘ziga ishongan holda xavotirni yig‘ishtirib, yo‘lga chiqasiz.

Kafolat aktining o‘ziga xos jihati - u muloqot ishtirokchilari o‘rtasida muayyan yangi majburiyat munosabatini vujudga keltiradi. Adresant - kafolat beruvchi o‘z zimmasiga kafillik vazifasini oladi, tinglovchi esa kafolat oluvchi sifatida ma‘lum darajada huquq yoki kafolatlangan imtiyozga ega bo‘ladi. Aynan shu o‘zaro aloqa tufayli, kafolat akti ko‘pincha ishonch fenomeni bilan chambarchas bog‘liq.

**Natijalar.** Kafolat nutqiy akti turli diskurslarda turlicha namoyon bo‘ladi va har birida o‘zining dinamik vazifasini bajaradi. Badiiy matnlar va dramatik asarlarda biror qahramonning kafolat berishi syujetning muhim burilish nuqtasi bo‘lishi mumkin: u shu orqali o‘z xarakterini ko‘rsatadi, boshqa qahramonlar bilan munosabatini o‘zgartiradi, hamda o‘quvchi/yuzerda intizorlik hissi uyg‘otadi - bu va‘da bajarilarmikin, degan. Masalan, adabiyotshunoslar ta‘kidlaganidek, dramatik asarlarda komissiv aktlar, xususan kafolat va va‘dalar, konflikti oldinga siljituvchi kuchga ega bo‘ladi.

Dialoglarda kafolat akti ko‘pincha bahs yoki muzokarani yakunlashga xizmat qiladi: biri ikkinchisini ishontrish olmayotganida, nihoyat *“Men shaxsan kafolat beraman!”* deb keskin illokutiv harakat qiladi va shu bilan bahsga nuqta qo‘yadi. Bu paytda tinglovchi ko‘pincha ortiq tortishmaydi, chunki gapiruvchi maksimal darajada javobgarlikni bo‘yniga oldi - endi unga ishonishdan boshqa chorasi qolmaydi (yoki aksincha, mutlaqo ishonmasa, muloqotni to‘xtatadi). Demak, kafolat akti diskursga barqarorlashtiruvchi dinamika qo‘shadi: muloqot ishtirokchilari orasidagi noaniqlik va ishonchsizlikni bartaraf etadi, suhbatini yo‘nalishini aniqroqqa buradi.

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

Ingliz tilidagi badiiy matnlar va filmlarda personajlar o‘zaro muloqot jarayonida tez-tez komissiv aklardan foydalanadi – xususan, va’da, ont va albatta kafolat ifodalariga duch kelamiz. Bunday misollar personajlar xarakterini ochish, ularning munosabatlarini ko‘rsatish va syujetni rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Kafolat akti odatda dialoglarda keskin, ta’sirchan ibora ko‘rinishida namoyon bo‘ladi va tomoshabin/o‘quvchi diqqatini tortadi.

Masalan, mashhur ilmiy-fantastik film “*The Matrix*” (1999)da bunday epizod bor: bosh qahramon Neo kema bortida uyg‘onganidan so‘ng biroz bexuzur holatda bo‘ladi. Uni qarshi olgan ekipaj a‘zosi Tank quvnoq ohangda shunday deydi: “*Morning. Did you sleep? You will tonight. I guarantee it.*” (“Xayrli tong. Uxladingizmi? Bugun tunda uxlab qolarsiz. Men kafolat beraman.”). Ushbu replikada Tank Neoga biroz hazilomuz dalda bermoqda - bugun rostdan ham qattiq charchab, albatta uxlab qolishini kafolatlab, uni ishontirmoqda. Bu yerda “I guarantee it” iborasi o‘zining to‘g‘ridan-to‘g‘ri illokutiv kuchi bilan ajralib turadi: Tankning so‘zlari Neo uchun ham tasalli (yallig‘lovchi muhitda hazil aralash ishonch) bo‘lib, tomoshabin uchun ham personajning ijobiy qahramon sifatidagi qiyofasini mustahkamlaydi - u ishonchli, do‘stona va nekin. Shu misolda kafolat akti personajlar o‘rtasida ishonchli aloqa o‘rnatish uchun xizmat qilgan: Neo endi Tankning tajribasiga tayanishi, o‘zini xavfsizroq his qilishi mumkin.

### **Muhokama.**

Kafolat akti ommaviy nutqlarda, siyosiy chiqishlarda va reklama diskursida juda keng qo‘llanadi. Buning sababi - bu janrlarda tinglovchilarning ishonchini qozonish muhimligi. Siyosatchilar, notiqarlar tez-tez “Men kafolat beraman” mazmunidagi iboralar bilan xalqni ishontirishga urinadilar. Masalan, AQSh prezidenti Jo Bayden 2021-yil 20-yanvardagi inauguratsion nutqida Amerika xalqini birlikka chorlar ekan, qat’iy ohangda shunday dedi: “*If we do that, I guarantee you, we will not fail*” [5]. O‘zbekchaga tarjima qilinsa: “Agar biz shu ishni qilsak, men kafolat beramanki, biz muvaffaqiyatsiz bo‘lmaymiz (ya’ni albatta muvaffaqiyat qozonamiz).” Prezident Bayden bu yerda mamlakat ahliga kelajakka dair o‘z ishonchini komillik darajasida bildirmoqda - “garantiya berish” orqali u xalqdan qo‘rqmaslik va birlashishda davom etishni so‘raydi. Ko‘rinib turibdiki, siyosiy nutq kontekstida kafolat akti auditoriyani ruhlantirish, ularda umid va ishonch uyg‘otishga qaratilgan kuchli ritorik vositadir. Bunday hollarda kafolat akti liderning obro‘si bilan qo‘shilib, jamoaviy ongga ta’sir o‘tkazadi: xalq “Prezident o‘z so‘ziga shu qadar ishonmoqdaki, kafolat bermoqda - demak, biz ham ishonishimiz kerak” degan xulosaga kelishi kutiladi.

Kafolat aktining eng ko‘zga ko‘ringan va keng tarqalgan qo‘llanilish sohalaridan biri - bu reklama va marketing diskursidir. Reklama matnlarida ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar iste’molchiga mahsulot/xizmat sifatini kafolatlash orqali ularni xaridga undaydilar. Ingliz tilida mashhur bo‘lgan bir qator reklama shiorlari bor, ular hatto mem va iboraga aylangan. Masalan, AQShdagi Men’s Warehouse kiyim do‘konlari tarmog‘i asoschisi Jorj Zimmerning reklamadagi so‘zi juda mashhur edi: “*You’re gonna like the way you look. I guarantee it.*” [6], ya’ni “Qiyofangiz o‘zingizga yoqadi. Men bunga kafolat beraman.” Ushbu ibora televizor va radio reklamalar orqali millionlab marta takrorlangani uchun amerikalik auditoriya orasida yod bo‘lib ketgan. Bu yerda sotuvchi mijozga mahsulot (kostyum) uning qiyofasini chiroyli ko‘rsatishini kafolatlamoqda. Albatta, bu holatda kafolatning huquqiy ma’nosi kamroq, lekin psixologik ishontiruv ma’nosi kuchli - iste’molchida “agar menga yoqmasa-chi?” degan savolga o‘rin qolmaydi, chunki sotuvchi o‘z nomini tikkan holda ishonch bermoqda. Ko‘p reklamalarda biz “Sizning qoniqishingiz kafolatlanadi” (“Satisfaction guaranteed”) kabi iboralarni ko‘ramiz – bularning bari iste’molchining ikkilanishini yo‘qotish, ularda mahsulotga nisbatan ishonch paydo qilish strategiyasidir.

Reklama matnlarida kafolat akti ko‘pincha bevosita yoki bilvosita shaklda bo‘ladi. Bevosita shakl – yuqoridagi kabi “kafolat beramiz” so‘zini ishlatish bo‘lsa, bilvosita shakl kafolat mazmunini turli va’dalar bilan ifodalash orqali xarakterlanadi. Masalan, “*Agar mahsulotimiz Sizga yoqmasa, pulingizni qaytaramiz*” - bu aslida “kafolat beramiz”ning boshqa ko‘rinishi. Ingliz tilida “money-back guarantee” degan birikma bor - “pulni qaytarish kafolati”. Ko‘pincha reklamalarda “*30-day money-back guarantee*” kabi iboralar bilan uchrashamiz, ya’ni “30 kun ichida pulni qaytarish kafolati (agar mahsulotdan norozi bo‘lsangiz)”. Bunday kafolatlar orqali kompaniyalar mijozga shuni aytmoqdaki: “Biz sifatga shunchalik ishonamiz, agar Sizni qoniqtirmasa zararizni qoplaymiz”. Bu o‘rinlarda kafolat akti kompaniya va iste’molchi o‘rtasida rasmiy bo‘lmagan ijtimoiy kontrakt vazifasini o‘taydi - iste’molchi xotirjam xarid qiladi, kompaniya esa o‘z obro‘yi va mijoz ishonchi evaziga savdoni oshiradi.

### **Xulosa.**

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

Xulosa qilish joizki, turli janr va diskurslarda kafolat nutqiy akti o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi, biroq hamma holatlarda uning ichki illokutiv mag‘zida ishonch bildirish va majburiyat olish yotadi. Badiiy adabiyot va kinoda bu akt dramatik ta’sir kuchiga ega bo‘lib, syujet va obrazlarni shakllantiradi; siyosiy nutqlarda u auditoriyani ruhlantiradi va lider so‘zining ishonchliligini ko‘rsatadi; sport diskursida jamoaga motivatsiya beradi yoki liderning jasoratini ifodalaydi; reklamada esa mijozning ishonchini qozonish va xaridga undash quroli sifatida xizmat qiladi. Ko‘rilgan misollar shuni tasdiqlaydiki, kafolat nutqiy akti kommunikativ pragmatikaning universal vositasi bo‘lib, uning funksional roli - ishontirish, xotirjam qilish va majburiyatni ta’kidlash - hamma tillarda va madaniyatlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Paterson L. What Is a Threat? // Ergo: An Open Access Journal of Philosophy. – 2023. – Vol.9, No.39. – P.1123-1158
2. Ferrero L. Conditional Intentions. – Noûs, 2009. №43(4), 700-741
3. Helm Bennett W. Trust as a Reactive Attitude. – Oxford Studies in Agency and Responsibility, 2014. – P.187–215
4. Movie Sounds. Quotes with Sound Clips from The Matrix. – URL: <https://movie-sounds.org/sci-fi-movie-samples/quotes-with-sound-clips-from-the-matrix/morning-did-you-sleep-you-will-tonight-i-guarantee-it>
5. Biden J.R. Jr. Inaugural Address by President Joseph R. Biden, Jr. – 20 Jan. 2021. URL: <https://bidenwhitehouse.archives.gov/briefing-room/speeches-remarks/2021/01/20/inaugural-address-by-president-joseph-r-biden-jr/>
6. Taylor A. R. You’re Gonna Like the Way You Look, I Guarantee It! The Way I See It. – 2017. – 28 Feb. – URL: <https://andyrtaylor.com/2017/02/28/youre-gonna-like-the-way-you-look-i-guarantee-it/>
7. Bay Money Back Guarantee Policy. URL: <https://www.ebay.com/help/policies/ebay-money-back-guarantee-policy/ebay-money-back-guarantee-policy?id=42> 10